



UDK:81'373.48:82(512.133+410)

Zilola E. MIRAKHMEDOVA,  
Toshkent davlat transport universiteti  
E-mail: zilolamirakhmedova@gmail.com,

TDTTrU dotsenti, PhD. I.M.Ataboyev taqrizi asosida

### G'AFUR G'ULOM VA JEROM K. JEROM ASARLARIDA EVFEMIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek yozuvchisi G'afur G'ulom va ingliz yozuvchisi Jerom K. Jeromning badiiy asarlarida qo'llangan evfemizmlarning lingvokulturologik mohiyati qiyosiy-tahliliy usulda o'rganiladi. Tadqiqotda evfemizmlarning ikkala madaniyat – o'zbek va ingliz-sakson – adabiy an'alarida tutgan o'rni, ularning til tizimidagi funksiyalari hamda badiiy matnda voqelanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Evfemizm, lingvokulturologiya, Gbadiiy matn, qiyosiy tahlil, madaniyatlararo kommunikatsiya, nutq odobi, til birliklari, semantika.

### LINGUOCULTUROLOGICAL ESSENCE OF EUPHEMISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULOM AND JEROME K. JEROME

Annotation

This article examines the linguoculturological essence of euphemisms used in the literary works of the Uzbek writer Gafur Gulom and the English writer Jerome K. Jerome through a comparative-analytical approach. The study considers the role of euphemisms in the literary traditions of both cultures—Uzbek and Anglo-Saxon—their functions in the language system, as well as the features of their realization in literary texts.

**Key words:** Euphemism, linguoculturology, literary text, comparative analysis, intercultural communication, speech etiquette, linguistic units, semantics.

### ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭВФЕМИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГАФУРА ГУЛЯМА И ДЖЕРОМА К. ДЖЕРОМА

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвокультурологическая сущность эвфемизмов, используемых в художественных произведениях узбекского писателя Гафура Гуляма и английского писателя Джерома К. Джерома, на основе сравнительно-аналитического подхода. В исследовании анализируется роль эвфемизмов в литературных традициях обеих культур – узбекской и англосаксонской, их функции в языковой системе, а также особенности их реализации в художественном тексте.

**Ключевые слова:** Эвфемизм, лингвокультурология, художественный текст, сравнительный анализ, межкультурная коммуникация, речевой этикет, языковые единицы, семантика.

**Kirish.** Tilshunoslikda evfemizmlar muammosi nafaqat semantik, balki ijtimoiy-madaniy, pragmatik va badiiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Evfemizm – bu jamiyatda salbiy, qo'pol, tabu yoki noxush deb qabul qilingan so'z yoki iboralar o'rniga qo'llanadigan yumshoqroq va munosibroq til birliklaridir. Ushbu hodisa barcha tabiiy tillarda mavjud bo'lib, har bir millat madaniyatining o'ziga xos qirralarini aks ettiradi.

G'afur G'ulom – o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi bo'lib, uning asarlarida o'zbek xalqining turmush tarzi, mentaliteti, til boyligi va nutq odobi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Jerom K. Jerom esa ingliz adabiyotining mashhur vakili sifatida Viktoriya davri ingliz jamiyatining til va madaniyat an'alarini o'z ijodida yorqin ifodalagan. Ikki muallif asarlaridagi evfemizmlarni qiyosiy o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot nazariyasi uchun ham katta qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy lingvokulturologiya fan sifatida til va madaniyat o'rtasidagi aloqani chuqur o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, evfemizmlar bu ikki soha kesishmasida eng yorqin hodisalardan birini tashkil etadi. O'zbek va ingliz badiiy adabiyotidagi evfemistik

vositalarning qiyosiy-lingvokulturologik tahlili hali yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Evfemizmlarning lingvistik va madaniy jihatlarini o'rganishda xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, evfemizm va disfemizmni tilning ijtimoiy qalqoni sifatida tavsiflagan tadqiqotchilar ushbu hodisani insonning ijtimoiy muhitga moslashuvi bilan bog'laydi. Ularning fikricha, til foydalanuvchilari jamiyat tomonidan noxush, qo'pol yoki tabu deb baholanadigan hodisalarni bevosita ifodalashdan qochib, ularni yumshatish orqali kommunikativ muvozanatni saqlashga intiladi. Shu jihatdan evfemizmlar nafaqat stilistik vosita, balki ijtimoiy-psixologik himoya mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu yondashuv evfemizmlarning kommunikativ strategiya sifatidagi o'rnini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi hamda ularning nutq jarayonidagi funksional yukini kengroq talqin qilishga zamin yaratadi [1].

Odob-axloq nazariyasi asosida nutqiy munosabatlarni tahlil qilgan olimlar evfemizmlarni “yuzni saqlash” (face-saving) strategiyasi doirasida ko'rib chiqadilar. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir nutq ishtirokchisi o'zining hamda

subhatdoshining ijtimoiy obro'sini saqlashga intiladi, bu esa til vositalarini tanlashda ehtiyotkorlikni talab etadi. Evfemizmlar aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, salbiy yoki noqulay mazmuni yumshatish orqali kommunikativ ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Natijada nutq jarayonida ijtimoiy muvozanat va hurmat tamoyillari ta'minlanadi. Mazkur nazariy yondashuv G'afur G'ulom va Jerome K. Jerome asarlaridagi evfemistik birliklarning pragmatik vazifalarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki har ikki adib ijodida ham muloqot madaniyati va nutq etikasi alohida o'rin egallaydi [2].

So'z ma'nosini izohlash masalalarini evfemizm bilan bog'liq holda o'rgangan tadqiqotchilar evfemizmlarning semantik transformatsiya jarayonini alohida e'tirof etadilar. Ularning ta'kidlashicha, evfemizmlar salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgan birliklarni neytrallashtirish yoki ularning semantik yukini o'zgartirish orqali yangi, ijobiy yoki kamida neytral ma'no hosil qiladi. Bu jarayon tilning dinamik tabiati bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda kontekst, madaniy stereotiplar va nutqiy vaziyat muhim rol o'ynaydi. Shu sababli evfemizmlarni faqat leksik hodisa sifatida emas, balki semantik-pragmatik tizimning tarkibiy qismi sifatida o'rganish zarur. Ushbu yondashuv tadqiqotimizda evfemistik birliklarning ichki ma'no tuzilishini, ularning konnotativ qatlamlarini va kommunikativ yukini aniqlashda asosiy tayanch vazifasini bajardi [3]. Ikki tilli va izohli lug'atlar esa evfemizmlarning ingliz tilidagi qo'llanish doirasini keng misollar asosida ko'rsatib, ularning funksional imkoniyatlarini amaliy jihatdan yoritib beradi [4].

Evfemizmlar va lingvokulturologiya o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rgangan tadqiqotchilar ushbu hodisaning madaniy determinatsiyasiga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, har bir jamiyatda tabu sanaluvchi mavzular doirasi turlicha bo'lib, bu farqlar evfemistik ifodalarning shakllanishida bevosita aks etadi. Masalan, ayrim madaniyatlarda o'lim, kasallik yoki ijtimoiy maqomga oid masalalar evfemistik tarzda ifodalansa, boshqalarida boshqa mavzular ustuvor hisoblanadi. O'zbek va rus tillaridagi evfemizmlarni taqqoslab o'rgangan tadqiqotlar milliy-madaniy tafovutlarni yaqqol ko'rsatib beradi, xususan, tabu tushunchalarining mazmuni va ularni ifodalash usullari farqlanishi aniqlangan. Shuningdek, xitoy va o'zbek tillari misolida olib borilgan izlanishlar sharq madaniyatlarida hurmat, kamtarlik va uyat tushunchalarining evfemistik ifodalarda yorqin aks etishini ko'rsatadi. Bu esa evfemizmlarni lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganish zarurligini yanada asoslaydi [5–7].

O'zbek tilidagi evfemizmlarning tasnifi va yasaliş usullarini o'rgangan tadqiqotchilar ushbu birliklarni kompleks yondashuv asosida tahlil qiladilar. Ular evfemizmlarni semantik, strukturaviy va funksional mezonlarga ko'ra guruhlarga ajratib, har bir turining nutqdagi vazifasini aniqlab beradi. Xususan, semantik tasnif evfemizmlarning ma'no o'zgarish mexanizmlarini ochib bersa, strukturaviy yondashuv ularning yasaliş modellari va til tizimidagi o'rnini ko'rsatadi, funksional tasnif esa ularning kommunikativ vazifalarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar o'zbek nutq madaniyatida evfemizmlarning muhim o'rin tutishini asoslab, ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ochib beradi. Shu bois mazkur ilmiy ishda o'zbek tilidagi evfemizmlarni tahlil qilishda aynan ushbu manbalar asosiy nazariy tayanch sifatida foydalanildi [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda evfemizmlarning badiiy matndagi pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish maqsadida bir nechta o'zaro bog'liq ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, qiyosiy-tipologik tahlil metodi o'zbek va ingliz tillaridagi evfemistik birliklarning

umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu metod orqali turli til tizimlariga mansub birliklarning strukturaviy va semantik o'xshashliklari hamda milliy-madaniy tafovutlari ochib berildi. Kontekstual tahlil esa evfemizmlarning aynan nutq jarayonida, ya'ni muayyan matn va vaziyat doirasida qanday ma'no kasb etishini aniqlash imkonini berdi. Komponentli tahlil yordamida evfemistik birliklarning ichki semantik tarkibi, ya'ni ularning denotativ va konnotativ komponentlari ajratib ko'rsatildi. Lingvokulturologik tahlil metodi esa evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini, ularning ortida yotgan qadriyatlar tizimini va ijtimoiy stereotiplarni ochib berishda asosiy vosita sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotning empirik bazasini G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam", "Shum bola", "Netay" kabi nasriy asarlari hamda she'riy to'plamlari, shuningdek, Jerome K. Jeromning "Three Men in a Boat" va "Idle Thoughts of an Idle Fellow" asarlari tashkil etdi. Mazkur asarlar tanlanishida ularning badiiy qiymati, til boyligi, real hayotiy voqealarni aks ettirishi hamda dialogik nutqning keng qo'llanilishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Ayniqsa, ushbu asarlarda mualliflarning individual uslubi, hazil-mutoyiba, kinoya va yumor vositalari orqali evfemistik ifodalardan keng foydalanilgani ularni tadqiqot uchun muhim manbaga aylantirdi.

Tahlil jarayonida tanlangan matnlardan evfemistik birliklar maxsus tanlab olindi va tizimlashtirildi. Har bir birlik dastlab kontekst asosida aniqlanib, uning asl (to'g'ridan-to'g'ri) va ko'chma (yumshatilgan) ma'nolari qiyoslab chiqildi. Shundan so'ng ular semantik (ma'no xususiyatlari), funksional (nutqdagi vazifasi) va lingvokulturologik (madaniy asoslari) mezonlar asosida tasnif qilindi. Qiyosiy tahlil jarayonida o'zbek va ingliz tillaridagi evfemizmlarning o'xshash va farqli jihatlari, xususan, tabu mavzular, ijtimoiy munosabatlar va nutq etikasi bilan bog'liq holatlar alohida e'tiborga olindi.

Tadqiqot davomida jami 120 dan ortiq evfemistik birlik aniqlanib, ular mavzuviy guruhlarga (masalan, o'lim, kasallik, ijtimoiy mavqe, insoniy xulq-atvor, jismoniy va ruhiy holat va boshqalar) bo'yicha tasnif qilindi. Har bir guruh doirasida evfemizmlarning qo'llanish chastotasi, semantik o'zgarish darajasi va pragmatik yuklamasi tahlil qilindi. Natijada evfemizmlarning badiiy matnda nafaqat estetik vosita, balki kommunikativ strategiya va madaniy fenomen sifatidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

**Tahlil va natijalar.** G'afur G'ulomning badiiy asarlarida evfemizmlar o'zbek xalq madaniyati va nutq odobi bilan chambarchas bog'liq holda qo'llaniladi. Ular asosan o'lim, kambag'allik, jismoniy nuqsonlar hamda ijtimoiy munosabatlarni yumshoq ifodalashga xizmat qiladi.

O'lim mavzusida "o'lib ketmoq" o'rniga "dunyodan o'tmoq", "ko'z yummoq", "rahmatli bo'lmoq" kabi evfemizmlar ishlatiladi. Masalan, "Shum bola" asarida: "Bu kishi yaqinda ichburug'idan vafot qilganlar" – Kasallik nomi orqali natija bilvosita anglashiladi, bu esa nutqda keskinlikni kamaytirib, ehtirom va muloyimlikni saqlashga xizmat qiladi.

Kambag'allik mavzusida "qo'li kaltalik", "ahvoli chigallik" kabi iboralar qo'llanilib, qashshoqlik holati yumshoq tarzda ifodalanadi. "Netay"da: "Ularning ahvoli o'sha kunlarda anchagina chigal edi".

Jismoniy nuqsonlar "ko'zi ojiz", "qulog'i og'ir" kabi evfemizmlar orqali inson qadrini saqlash tamoyili aks etadi.

Nikoh va sevgi mavzusida "bir yostiqa bosh qo'yomoq", "qo'l ushlashmoq" kabi iboralar ishlatiladi.

Jerom K. Jerom ijodida evfemizmlar viktorian jamiyatining ijtimoiy me'yorlari va nutq odobini aks ettiradi.

O'lim mavzusida "to pass away", "to depart this life" kabi iboralar qo'llaniladi: "Poor old Uncle Podger has passed away".

Kasallik mavzusida "indisposed", "a little under the weather" kabi evfemizmlar ishlatiladi: "I knew that I was in some way indisposed".

Ijtimoiy holat mavzusida "not very well off", "in reduced circumstances" iboralarini moddiy ahvolni to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan ifodalaydi.

Yosh mavzusida "getting on in years" kabi iboralar yoshni yumshoq ifodalash an'anasini ko'rsatadi.

G'afur G'ulom va Jerom K. Jerom asarlarida evfemizmlar universal lingvistik hodisa sifatida o'lim, kasallik va ijtimoiy holatni yumshoq ifodalash vazifasini bajaradi. Har ikkala muallifda ham ular badiiy matnning estetik ta'sirini kuchaytiradi va personaj nutqini tabiiylashtiradi. Biroq madaniy jihatdan farq mavjud: G'afur G'ulomda evfemizmlar ko'proq diniy-axloqiy qarashlar va o'zbek urf-odatlarini bilan bog'liq bo'lsa, Jeromda ular viktorian davr odobi, ijtimoiy tabaqalanish va yumoristik ohang bilan uyg'unlashadi.

**Xulosa.** Olib borilgan tadqiqot G'afur G'ulom va Jerom K. Jerom asarlaridagi evfemizmlarning lingvokulturologik mohiyatini qiyosiy tarzda yoritib berdi. Ikkala muallif ijodida evfemizmlar badiiy matnning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali nafaqat leksik boylik, balki muallif mansub bo'lgan madaniyatlarning tabiiy tizimlari, ijtimoiy normalari va milliy mentaliteti ham aks etadi.

G'afur G'ulom asarlarida evfemizmlar o'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashi, islomiy qadriyatlarini va nutq odobi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lsa, Jerom K. Jerom ijodida ular viktorian davr ingliz jamiyatining ijtimoiy iyerarxiyasi, tabaqaviy odob me'yorlari hamda ingliz milliy xarakteriga xos yumoristik ohang bilan uyg'unlashadi.

Ikkala adabiy an'anadagi evfemizmlarning umumiy xususiyati shundaki, ular ijtimoiy muloqotda "yuzni saqlash" va munosabatlarni yumshatish funksiyasini bajaradi hamda badiiy matnda psixologik chuqurlik va estetik ta'sirini kuchaytiradi. Shu bilan birga, evfemizmlarning metafora, metonimiya, litota va perifraza kabi semantik mexanizmlar asosida shakllanishi ularning universal lingvistik tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Allan K., Burrige K. Euphemism & dysphemism: Language used as shield and weapon. – New York: Oxford University Press, 1991.
2. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge University Press, 1987. – Vol. 4.
3. Warren B. What euphemisms tell us about the interpretation of words // *Studia linguistica*. – 1992. – Vol. 46. – № 2. – P. 128–172.
4. Rawson H. A dictionary of euphemisms & other doubletalk: Being a compilation of linguistic fig leaves and verbal flourishes for artful users of the English Language. – Crown, 1981.
5. Bayramova-Vahidli L. Euphemisms and linguoculturology // *Philology and Art Studies*. – 2022. – № 1.
6. Alimov T. E. National and cultural specifics of euphemisms (based on the material of the Russian and Uzbek languages) // *Modern scientist*. – 2023. – № 2. – P. 50–58.
7. Shamsieva S. Linguistic and cultural features of euphemisms in Chinese and Uzbek languages // *Sharq Mash'ali*. – 2022. – № 01. – P. 6–8.
8. Sadullaeva N., Mamatova F., Sayfullaeva R. Classification of Euphemism and its formation in the Uzbek language // *Journal of critical reviews*. – 2020. – Vol. 7. – № 4. – P. 426–430.